




O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti




o'rtasidagi fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi —

Bo'lajak Sharqshunos Diplomatlar

Toshkent-2023







“

O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib olmaydigan boylik ekanini aslo unutmang! Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib, voyaga yetyapsizlar. Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak. Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas’uliyatni, tom ma’nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat’iy ishonaman.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



“

Tashqi ishlar vazirligi yangi avlod liderlari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlat rahbarimiz olib borayotgan tub islohotlarni doimo qoʻllab-quvvatlaydi. Bu boradagi global hamkorlik ham faol kengaytirib boriladi.

Baxtiyor Odilovich Saidov
Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri



“

Dunyo talablariga javob bera oladigan, xorijiy tillarni mukammal bilish bilan bir qatorda dunyo mamlakatlari madaniyati, tarixi, falsafasi, iqtisodi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, xalqaro siyosati bo'yicha chuqur bilimlarga ega yuksak maqsadlarni qalbiga jo qilgan vatanparvar zamonaviy sharqshunoslarni tayyorlash bizning bosh maqsadimizdir.

Gulchexra Shavkatovna Rixsiyeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori

Bo'lajak sharqshunos diplomatlar Mundarija:

Kirish

3
Nilufar Narimonova
Maqsad sari to'xtovsiz

5
Elbek Toshmurodov
Faqat siz hayotingizni o'zgartira olasiz,
hech kim buni siz uchun qila olmaydi

7
E'zozabonu Abdusattorova
Men yolg'iz emasman, men bilan koinot

9
Saidmurod Dilmurodov
Oldinga yurish va taslim bo'lmaslik

11
Qo'chqorov Ma'ruf
Mashaqqat muvaffaqiyat kaliti

13
Shohruxxon Abduvoitov
Otamning ushalmagan orzularini
ushaltirish - eng katta maqsadim

15
Sherzamin Jovliyev
O'z maqsadlaring yo'lida harakat qilishdan
to'xtama

17
Marjona Ergasheva
Mening eng katta raqibim bu - kechagi men

19
Farangiz Tolipova
Mukammal bo'lmasa bajarma, chunki
aniqsizlik doimo qadrsizdir

21
Saydullo Abdullayev
Hayot sizga limon berganida, undan
limonat tayyorlang

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 551-sonli Qarori asosida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi muassasalarida amaliyot o'tagan talabalar haqida tayyorlandi.

MAQSAD SARI

O'zbekiston
Respublikasining
Xitoy Xalq
Respublikasidagi
elchixonasi
amaliyotchisi

Nilufar
Narimonova

TO'XTOVSIZ!

Yutuqlari

- 2020-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga davlat granti asosida qabul qilingan;
- 2022-yildan beri O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshida tashkil etilgan "Yosh diplomatlar klubi" a'zosi;
- "Sharqshunos tahlilchilar" intellektual klubi a'zosi sifatida "Buyuk shaxmat taxtasi" va "Yumshoq kuch" kitoblarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida ishtirok etgan;
- 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida amaliyot o'tagan.

N. Narimonova:

Bugun O'zbekistonning yoshlarga oid siyosati yoshlarni rivojlantirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Hukumatning yoshlar o'rtasida ta'lim, tadbirkorlik faoliyatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlari jahon sahnasida e'tirofqa sazovor bo'lmoqda. O'zbekistonda turli tashabbus va dasturlar orqali yoshlarning kamol topishi va mamlakat yuksalishiga hissa qo'shishi uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Menga ham mana shunday imkoniyat berilganidan minnatdorman. O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi elchixonasida amaliyot o'tash men uchun hayotimdagi eng foydali va muvaffaqiyatli voqea bo'ldi deb ayta olaman. Amaliyot davrida diplomatik faoliyat to'g'risida, shuningdek, elchixonaning ishlash tizimi va vazifalari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldim. Elchixona xodimlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, tadbirlar tashkil etish, tadqiqotlar o'tkazish va diplomatik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kabi turli vazifalarda yordam berish imkoniyatiga ega bo'ldim. Bu tajriba menga xalqaro munosabatlar va samarali diplomatiyaning ahamiyatini chuqurroq anglashimga yordam berdi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Sharqshunoslik universiteti rahbariyatiga menga bildirilgan ishonch va yordam uchun, shuningdek amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkonini bergani uchun o'zimning cheksiz tashakkurimni izhor etaman.

**Faqat siz
hayotingizni
o'zgartira
olasiz, hech
kim buni siz
uchun qila
olmaydi**

**O'zbekiston
Respublikasining
Rossiya
Federatsiyasidagi
elchixonasi
amaliyotchisi**

**Elbek
Toshmurodov**

Yutuqlari

- “Yosh sharqshunos diplomatlar” klubi a’zosi
- Ingliz, turk va rus tillarida erkin suhbatlasha oladi;
- 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida amaliyot o‘tagan.

E. Toshmurodov:

Ta’lim - har bir davlat rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar solar ekanmiz, ularning eng avvalo ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari sababli shu darajaga yetib kelganiga guvoh bo‘lamiz.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ham aynan ta’lim sohasini rivojlantirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlar kelajagi uchun barcha sharoitlarni yaratish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

Yoshlarga qaratilayotgan e’tibor namunasi sifatida, men joriy yilda O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi elchixonasida amaliyot o‘tadim. Elchixonadagi amaliyotimning katta qismi Siyosat va Protokol bo‘limlarida o‘tdi hamda asosan siyosiy masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar bilan ishlarni yuritdim. Ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada takomillashtirish bilan bo‘g‘liq bo‘lgan siyosiy yozishmalarni bo‘lim mutaxassislari bilan birgalikda o‘rganib chiqib, ularga tegishli tartibda javob xatlari (notalar) yozdik, ushbu yozishmalar davrida o‘zimga kerakli bilim va ko‘nikma hosil qildim. Elchixonada tashkil etilgan turli xil diplomatik qabullar, ularning mazmun-mohiyati, tashkil etilishi kabi jarayonlarda faol qatnashib, ushbu uchrashuvlarda diplomat ikki davlat o‘rtasida turli munosabatlar kechayotgan vaqtida o‘zini qanday tutishi, nimalarga ahamiyat berishi kerakligini bilib oldim. Amaliyot mobaynida Vyetnam Respublikasi bilan bo‘lib o‘tgan ikki tomonlama uchrashuvda ishtirok etib, ikki davlat aloqalarini yaqindan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Amaliyot davomida turli diplomatik yozishmalar qay tarzda va mazmunda olib borilishi bilan yaqindan tanishib, ularni yozish, jo‘natish hamda qabul qilish jarayonlarida bevosita qatnashib ko‘nikma hosil qildim.

Biz uchun shunday imkoniyatlarni yaratgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga, mamlakatimizning chet eldagi vakolatxonalari kabi nufuzli maskanlarda tajriba orttirish imkoniyatini taqdim etgan Tashqi ishlar vazirligi hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ma’muriyatiga o‘zimning chuqur minnatdorchiligimni bildiraman va bildirilgan ishonchni oqlash, Vatanimiz istiqboli yo‘lida xizmat qilishga va’da beraman.

Men yolg'iz emasman, men bilan koinot!

O'zbekiston
Respublikasining
Turkiya
Respublikasidagi
elchixonasi
amaliyotchisi

**E'ZOZABONU
ABDUSATTOROVA**

Yutuqlari

- “Kelajakka nazar-2022” talabalar ilmiy loyihalari Butunrossiya tanlovi g‘olibi;
- “Talim fidoiysi” ko‘krak nishoni sohibasi;
- 2023-yilda Tashqi ishlar vazirligi amaliyotchisi.

E. Abdusattorova:

O‘zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasidagi elchixonasidagi amaliyotim davomida men elchixona faoliyati bilan, xususan siyosiy yo‘nalishi, iqtisodiy dipolomatiyasi, konsullik ishi, madaniy-gumanitar faoliyati bilan yaqindan tanishdim. Shuningdek, turk va ingliz tilini bilishim orqali Turkiya Tashqi ishlar vazirligi va boshqa tashkilotlarga yuborilayotgan notalar va xatlar, shuningdek axborot-tahliliy materiallar tayyorlash hamda ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlariga ko‘maklashdim. Bundan tashqari, elchixonada amaliyot o‘tash konsullik va viza ishlari bilan tanishish imkoniyatini yaratdi. Albatta, eng asosiysi bu Turkiya Respublikasida istiqomat qilayotgan mamlakatimiz fuqarolari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash hamda ularning murojaatlarini hal etishga ko‘maklashish bo‘ldi.

Umuman olganda, elchixonada amaliyot o‘tash tashqi siyosat va diplomatiya bilan bog‘liq jarayonlar bilan tanishish, shuningdek, xalqaro aloqalar sohasida kelajakni yaratishga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini berdi. Davlatimiz haqiqatdan ham yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha ishart-sharoitlarni yaratib kelmoqda. Bunday siyosat yoshlarga o‘z kelajagiga nisbatan ishonch bag‘ishlaydi, ularning qiziqishlari va maqsadlarini aniqlashga yordam beradi va muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘plab vositalarni taqdim etadi. Men davlatimizning qo‘llab-quvvatlashi tufayli oldimda ochilgan imkoniyatlardan minnatdorman va bu meni oldinga intilish va rivojlanishda davom etishga undamoqda.

Imkoniyatdan foydalangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevga, Tashqi ishlar vazirligi hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ma‘muriyatiga o‘z minnatdorchiligimni izhor qilaman. Ishonchim komilki, kelgusi yillarda ham xalqaro munosabatlar sohasida malakali va yetuk sharqshunos kadrlar yetishib chiqadi. Bu masalada sizning yordamingiz va qo‘llab-quvvatlashingiz barcha tengdoshlarim kabi mening ham rivojlanishim va kasbiy o‘shim uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

SAIDMUROD

DILMURODOV

A full-length portrait of a man in a dark suit, white shirt, and dark tie. He is smiling and has a small yellow flower pinned to his lapel. The background is a dark blue gradient.

**OLDINGA YURISH VA
TASLIM BO‘LMASLIK**
O‘zbekiston Respublikasining Rossiya
Federatsiyasidagi elchixonasi
amaliyotchisi

Yutuqlari

- *Basketbol bo'yicha O'zbekiston chempioni;*
- *"Yosh sharqshunos diplomatlar" klubi a'zosi;*
- *Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Volontyorlik markazi" yetakchisi;*
- *"O'zbekistondagi TOP-100 lider talabalar" dan biri.*

S. Dilmurodov:

So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlariga amaliy sohada o'zlarini namoyon etish uchun ulkan imkoniyatlar berilmoqda. Hurmatli Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev kelajakda mamlakatimiz farovonligi uchun sifatli kadrlar zaxirasini yaratish uchun ushbu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu islohotlar sababli men Tashqi Ishlar vazirligi hamda davlatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari faoliyati tanishishga imkoniyatiga ega bo'ldim.

Joriy yilda O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi elchixonasidagi amaliyotim davomida men elchixona faoliyatining asosiy jihatlari bilan tanishdim, shuningdek O'zbekiston Respublikasi mustaqillik kuniga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda, O'zbekiston Respublikasi elchisi va elchixona diplomatlari ishtirokida axborot materiallari tayyorlashda, protokol tadbirlarida, shuningdek idoralararo yozishmalarda ishtirok etishda bevosita ishtirok etdim.

Menga ishonch bildirib, o'z sohamda ulkan tajriba orttirishim va o'zimni yanada rivojlantirishimga sabab bo'lganlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevga, O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar vazirligiga, shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Sh.Rixsiyevaga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

**“Mashaqqat
muvaffaqiyat
kalitidir!”**

**O‘zbekiston
Respublikasining
Eron Islom
Respublikasidagi
elchixonasi
amaliyotchisi**

**Ma’ruf
Qo‘chqorov**

Yutuqlari

- Xorijiy va mahalliy konferensiya to'plamlarida "Qatar davlati tashqi siyosati rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari", "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning har tomonlama rivojlanish salohiyatini oshirish strategiyalari" kabi qator siyosiy-tahliliy maqolalari muallifi;
- "Yosh sharqshunos diplomatlar" klubi a'zosi;
- 2023-yilda Tashqi ishlar vazirligida amaliyot o'tadi.

M. Qo'chqorov:

So'nggi yillarda davlatimizda amalga oshirilayotgan har bir jabhadagi islohotlarda mamlakat yoshlarining ishtiroki ko'zga tashlanmoqda. Buni esa bevosita davlatimiz rahbarining o'zlari boshchiligidagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" ning yuqori dara-jadagi ijobiy ijrosi deb hisoblayman va o'zim ishtirokimdagi xorijiy diplomatik vakolat-xonada o'tagan amaliyotimni yoshlarga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlardan biri deb bilaman.



O'z navbatida men, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyatiga O'zbekiston Respublikasining Eron Islom Respublikasidagi elchixonasida amaliyot o'tash imkoniyatini yaratib berganliklari uchun o'zimning chuqur minnatdor-chiligimni bildirib o'tmoqchiman. Amin-manki, tashkil etiladigan bunday amaliyot jarayonlari xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik sohasida tahsil olayotgan men kabi talaba yoshlar uchun xalqaro maydonda ulkan tajriba orttirishga hamda shu sohada kelajakda malakali va yetuk kadrlarni yetishtirib chiqishda qimmatli ahamiyatga ega bo'ladi.





“Otamning
ushalmagan
orzularini
ro‘yobga
chiqarish - eng
katta
maqsadim”

O‘zbekiston
Respublikasining
Aqtau shahridagi
Bosh konsulxonasi
amaliyotchisi

SHOXRUXXON

ABDUVOITOV

Yutuqlari

- Prezident sovrini uchun o'tkazilgan "Tashabbus-2019" tanlovida "Eng yaxshi oilaviy tadbirkor" nominatsiyasi g'olibi;
- "Joy Academy" o'quv markazi asoschisi;
- Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Yil talabasi" nominatsiyasi g'olibi;
- "Mustaqil davlat hamdo'stligi davlatlari yosh lideri" ko'krak nishoni sohibi.



Men ham 2023/2024-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining Aqtau shahridagi Bosh konsulxonasida amaliyot o'tash uchun munosib ko'ril-dim. Amaliyotim davomida xal-qaro me'yoriy hujjatlar bilan bevosita tanishdim hamda xorijdagi vatandosh-larimizga qonuniy yordam berish jara-yonlarini kuzatib juda katta tajriba orttirdim.

O'ylaymanki, kelajakda biz yoshlar uchun qilingan bu harakatlar o'z natijasini ko'rsatadi. Biz yoshlar ham yaratilgan imkoniyatlarning samarasini kelajakda yurtimiz ravnaqi yo'lida ko'rsatamiz hamda o'z bilimimiz va tajribamiz bilan davlatimiz rivojida uchun har tomonlama hissa qo'shamiz. Bizga berilgan imkoniyat uchun Tashqi ishlar vazirligiga hamda univesitetimiz rahbariyatiga oilam va o'z nomimdan minnatdorchilik bildiraman.

Sh. Abduvoitov:

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari to-monidan yoshlar siyosatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yosh tadbirkorlarga, yosh oilalarga va yosh olimlarga berilayotgan imkoniyatlarni bugungi kunda amaliyotda ko'rib turibmiz. Shu jumladan, xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik yo'nalishida ta'lim olayotgan tala-balarni chet davlatlarga amaliyot o'tash uchun yuborish juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.



O'z maqsadlaring yo'lida harakat qilishdan
to'xtama!



**Sherzamin
Jovliyev**

O'zbekiston Respublikasining
Tojikiston Respublikasidagi
elchixonasi amaliyotchisi

Yutuqlari

- Xorijiy va mahalliy konferensiya to'plamlarida bir qator maqolalari chop etilgan;
- Volotyor-tarjimon sifatida bir qancha davlat tadbirlarida chet ellik mehmonlarga tarjimonlik qilgan;
- 2023-yilda Tashqi ishlar vazirligida amaliyot o'tadi.

Sh. Jovliyev:

O'zbekistonda yoshlarga juda ham ko'p imkoniyatlar ajratilmoqda. Ayniqsa yoshlarga sifatli ta'lim berish va ularni kelajakda yetuk mutaxassis qilib tayyorlashga yo'naltirilgan harakatlari e'tirofqa loyiq. Biz talabalarning xorij davlatlaridagi amaliyotimiz ham bu harakatlarning yaqqol misoli va samarasi desam yanglishmagan bo'laman.

O'zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasidagi elchixonasidagi amaliyot men uchun hayotimdagi unutilmas voqealardan biri sifatida hayotimda iz qoldirdi. Amaliyot davrida yangi bilimlar va ko'nikmalar olish bilan bir qatorda janob elchi bilan tanishish va ular bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo'ldim.

Elchixona xodimlari ham vaqtlari ziq bo'lishiga qaramay, o'zlarining qimmatli bilim va ko'nikmalarini men bilan baham ko'rishdi. Bir so'z bilan aytganda, amaliyot davomida o'zim uchun ulkan ish va hayot tajribasiga ega bo'ldim.

Shunday tinch vatanda tug'ilmaganimda, shunday universitet talabasi bo'lmaganimda bunday imkoniyatlar, muvaffaqiyatlar qayoqda deysiz, fursatdan foydalanib menga shunday imkoniyatlar taqdim etgan Tashqi ishlar vazirligiga va universitetimiz rahbariyatiga o'zimning cheksiz minnatdorligimni bildirib qolaman.



**MENING ENG KATTA RAQIBIM BU
KECHAGI MEN.**

**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING
QOZOG‘ISTON
RESPUBLIKASIDAGI
ELCHIXONASI AMALIYOTCHISI**

MARJONA

ERGASHEVA

Yutuqlari

- Xorijiy va mahalliy jurnallarda “Markaziy Osiyoda hamkorlik masalalari”, “Markaziy Osiyo geosiyosatida suv muammolari”, “Main causes of border issues in Central Asia” kabi qator siyosiy-tahliliy maqolalari chop etilgan;
- “Mahatma Gandi” monografiyasi va Jozef Nayning “Soft power” asarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish hamda chop etish ishlarida bevosita ishtirok etgan;
- Ingliz, nemis va pashtu tillarida erkin suhbatlasha oladi;

M. Ergasheva:

Ta’lim - har bir davlat rivojining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar solar ekanmiz, ularning eng avvalo ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari sababli shu darajaga yetib kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ham aynan ta’lim sohasini rivojlantirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, biz yoshlar rivoji uchun barcha sharoitlarni yaratish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi elchixonasidagi amaliyot davomida men Elchixona faoliyati, xususan iqtisodiy diplomatiya, siyosiy yo‘nalish, konsullik ishi, madaniy-gumanitar faoliyat, ta’lim va boshqa sohalar bilan yaqindan tanishdim hamda vakolatxona ish jarayonlarida bevosita ishtirok etdim. Shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi va boshqa tashkilotlarga yuboriladigan notalar va xatlar, axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda o‘z hissamni qo‘shdim hamda tarjima ishlarida ko‘maklashdim.

Ayniqsa, elchixona rahbari va diplomatlarning mahalliy ekspert va ishbilarmon doira vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvlarida qatnashish men uchun alohida tajriba maydoni sifatida xizmat qildi. Elchixonaning konsullik-huquqiy faoliyati jarayonida qatnashish hamda Qozog‘iston Respublikasida istiqomat qilayotgan O‘zbekiston fuqarolari murojaatlarini ko‘rib chiqishda ko‘maklashish ushbu sohada malaka va ko‘nikmalarimni oshirishga katta yordam berdi.

Imkoniyatda foydalanib, biz uchun shunday imkoniyatlarni yaratgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga, xususan mamlakatimizning chet eldagi vakolatxonalari kabi nufuzli maskanlarda tajriba orttirish imkoniyatini taqdim etgan Tashqi ishlar vazirligi hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ma‘muriyatiga o‘zimning chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.

FARANGIZ

Tolipova



O'zbekiston
Respublikasining
Qozog'iston
Respublikasidagi
elchixonasi
amaliyotchisi

**Mukammal bo'lmasa
bajarma, chunki
noaniqlik doimo
qadrsizdir**



Yutuqlari

- "Sharqshunos tahlilchilar" intellektual klubi a'zosi sifatida "Buyuk shaxmat taxtasi" va "Yumshoq kuch" kitoblarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida ishtirok etgan;
- Ankara Universiteti tomonidan berilgan C1 turk tili sertifikatini sohibasi;
- 2022-yilda Tashqi ishlar vazirligi "Dunyo AA"da amaliyot o'tadi;
- 2023-yilda Tashqi ishlar vazirligida amaliyot o'tadi.

F. Tolipova:

Har tomonlama barkamol, yetuk, aqlan va ma'nan sog'lom avlodni voyaga yetkazish bu har bir davlatning qay darajada qudratli ekanligini ko'rsatib beradigan faktorlardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyish etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat". Bunga tayyor o'rnak keltirsak, albatta bizni ko'rishingiz mumkin. Yoshlarga oid davlat siyosatining aynan yoshlarning qobiliyati va mavjud barcha iste'dodiga qaratilgani katta e'tiborga molik.

O'zbekiston Respublikasining Qozog'iston Respublikasidagi elchixonasidagi amaliyotim davomida diplomatik vakolatxonamizning faoliyati (siyosiy yo'nalish, iqtisodiy diplomatiya, konsullik ishi, madaniy-gumanitar faoliyat, ta'lim va boshqalar) bilan yaqindan tanishdim. Shu bilan birga, elchixonada o'tkazilgan rasmiy uchrashuvlar hamda mamlakatimiz Mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Ostona shahrida o'tkazilgan bayram oldi jarayonlarda faol qatnashdim. Nafaqat Elchixonadagi faoliyat, balki Konsullik-huquqiy faoliyati jarayonlarida bevosita qatnashish orqali Qozog'iston Respublikasida istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolari murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha real tasavvurlarga ega bo'ldim. Ushbu faoliyat o'z navbatida sohamga oid ko'nikmalarni yanada rivojlantirishga katta yordam berdi.

Shu o'rinda, menga mamlakatimizning chet eldagi diplomatik vakolatxonasida amaliyot o'tash imkonini yaratib bergan hamda ishonch bildirgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga samimiy tashakkurlarimni bildiraman.

SAYDULLO

ABDULLAYEV

**“Hayot sizga limon
berganida, limonad
tayyorlang”**



**O‘zbekiston
Respublikasining
Avstriyadagi
elchixonasi
amaliyotchisi**

Yutuqlari

- 2020-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga davlat granti asosida qabul qilingan;
- 2015-2018-yillarda suzish bo'yicha O'zbekiston chempionati ishtirokchisi;
- 2021/2022-o'quv yilida Erasmus almashinuv dasturi bo'yicha Fransiyada tahsil olgan.

S. Abdullayev:

Bugungi kunda davlatimiz Prezidenti tomonidan diplomatik munosabatlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar jadal rivojlanmoqda. Prezidentimiz rahbarligida O'zbekiston o'zining global miqyosdagi ishtirokini mustahkamlash va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Biz yoshlarga mana shu yo'lda oz bo'lsada hissa qo'shish imkoniyati berilayotgani juda katta voqelik deb hisoblayman. Yurtimizdagi yoshlarga qaratilgan davlat siyosati biz uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda, yosh avlod farovonligi va kamoloti yo'lida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Avstriyadagi elchixonasidagi amaliyot davomida men elchixona faoliyatining asosiy jihatlari bilan tanishdim, shuningdek iqtisodiy tahlil va prognoz qilish borasida tajriba orttirdim. Hujjatlarni tartibga solish va boshqarish, uchrashuvlarni rejalashtirish va uchrashuvlarni muvofiqlashtirish kabi ma'muriy vazifalarni bajarishda yordam berdim. Shuningdek, diplomatik tadbirlar va uchrashuvlarda qatnashish imkoniga ega bo'ldim, ularda diplomatik protokol, tartiblarni kuzatdim va o'rgandim. Bundan tashqari, men mezbon mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bo'yicha tadqiqot olib bordim va elchixona xodimlariga tahliliy ma'lumotlar tayyorlab berdim. Venadagi elchixonadagi amaliyotim menga diplomatik dunyo haqida to'liq tushuncha berdi hamda muloqot, tashkilotchilik va tadqiqot sohasida muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon berdi.

Fursatdan foydalanib, yoshlarga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori va qo'llab-quvvatlovi uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda universitetimiz rahbariyatiga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Ushbu jurnal Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti buyurtmasi asosida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati:

Toshkent davlat universiteti:

sharqshunoslik

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi:

G. Rixsiyeva - Rektor

A. Shukurov - Rektor maslahatchisi

N. Abdullayev - Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

S. Maxatov - Amaliyot va hamkorlik bo'limi boshlig'i

D. Xajimuratova - Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

A. Abdulxayev - "Yosh sharqshunos diplomatlar" klubi rahbari

E. Xamrayev - Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

I. Xasanov - Kadrlar va ta'lim muassasalari boshqarmasi boshlig'i

Sh. Zakirova - Ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi boshlig'i

Dizayner: Muslimbek Abdumajitov

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga talabalarning amaliyotini tashkil qilishdagi hamkorligi va ko'magi uchun tashakkur bildiramiz!

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarini kuzatib boring.



www.mfa.uz

www.tsuos.uz

www.mfa.uz

